



O'ZBEK TILI LUG'AT TARKIBINING NEOLOGIZMLAR BILAN BOYIB BORISHI

Madaminova Mohinabonu Ma'rufjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
3-fakulteti 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15036892>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Mart 2025 yil
Ma'qullandi: 15- Mart 2025 yil
Nashr qilindi: 17- Mart 2025 yil

KEY WORDS

neologizm, lug'atshunoslik,
axborot, jamiyat, leksika,
tilshunos, terminologiya,
zamonaviy texnologiyalar.

ABSTRACT

ushbu maqolada o'zbek tilining neologizmlar bilan boyish jarayoni o'rganildi. Neologizmlarning qo'llanilishi va til me'yorlariga moslashuvi muhokama qilib, ularning jamiyat va ta'lim tizimidagi roli yoritildi. Shuningdek neologizmlarni tadqiq qilish hamda ularni til tizimiga moslashtirish bo'yicha takliflar kiritildi.

Til insoniyat tafakkurining mahsuli bo'lib, u doimiy taraqqiyot va o'zgarish jarayonida bo'ladi. Har qanday tilning lug'at tarkibi turli davrlarda yangilanib, boyib boradi. Bu jarayonda neologizmlar – ya'ni yangi so'z va atamalar muhim o'rin tutadi. Neologizmlar, asosan, ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar natijasida paydo bo'ladi va jamiyat ehtiyojlariga qarab tilga singib boradi. O'zbek tili ham jahonning ko'plab tillari kabi doimiy rivojlanishda bo'lib, uning lug'at tarkibi yildan yilga boyib bormoqda. Ayniqsa, XXI asrda globallashtirish jarayonining jadallashishi, xalqaro muloqotning kuchayishi, innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida tilimizga ko'plab yangi termin va iboralar kirib kelmoqda. Kompyuter texnologiyalari, internet, marketing, moliya va ta'lim sohalaridagi global o'zgarishlar natijasida "onlayn", "oflayn", "startup", "freelancer", "brending" kabi so'zlar kundalik nutqimizga singib bormoqda. Shu bilan birga, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish maqsadida ba'zi neologizmlar o'zbek tiliga moslashtirilmoqda yoki milliy ekvivalentlari yaratilmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Neologizm (yunoncha neo – yangi, logos – so'z) – bu muayyan til lug'at tarkibiga yangi kirib kelgan yoki yaqinda shakllangan so'z, ibora yoki atamalardir. Ular odatda yangi ixtiro, hodisa, tushuncha yoki ehtiyoj tufayli paydo bo'ladi. Neologizmlar tabiiy ravishda har bir tilning rivojlanish jarayonida yuzaga keladi va lug'at tarkibining doimiy yangilanib borishini ta'minlaydi.

Lug'atshunoslik nuqtayi nazaridan neologizmlar uch asosiy toifaga bo'linadi:

1. Yangi yaratilgan so'zlar – muayyan ehtiyojdan kelib chiqqan holda, ilgari mavjud bo'lmagan va tilshunoslar yoki jamiyat tomonidan yaratilgan yangi so'zlar. Masalan, "raqamlashtirish" (digitization), "sun'iy intellekt" (artificial intelligence), "kiberxavfsizlik" (cybersecurity).

2. O'zlashmalar – boshqa tillardan kirib kelgan va ma'lum vaqt davomida iste'molga

moslashgan so'zlar. Masalan, ingliz tilidan kirgan "marketing", "startup", "onlayn", "brending", "freelancer" kabi atamalar O'zbek tilida keng qo'llanilmoqda.

3. Ma'noviy neologizmlar – mavjud so'zlarning yangi ma'noga ega bo'lishi yoki termin sifatida qo'llanilishi. Masalan, ilgari faqat jismoniy ko'rinishdagi "tarmoq" so'zi hozirda internet tarmog'i yoki ijtimoiy tarmoqlarni anglatishda ishlatilmoqda.

Neologizmlarning tilga singib borish jarayoni ularning xalq orasida qanday qabul qilinishiga bog'liq. Ba'zi neologizmlar tezda iste'molga kirib keladi va keng qo'llaniladi, boshqalari esa vaqt o'tishi bilan eskiradi yoki boshqa so'z bilan almashtiriladi.

O'zbek tilining lug'at tarkibi so'nggi o'n yilliklarda sezilarli darajada o'zgardi. Globallashuv jarayoni, xalqaro ilmiy va iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi natijasida tilimizga ko'plab yangi so'zlar kirib kelmoqda. Ayniqsa, quyidagi sohalarda neologizmlarning paydo bo'lishi kuzatilmoqda:

Texnologiya va axborot kommunikatsiyalari: "sun'iy intellekt", "blokcheyn", "kriptoalyuta", "big data" kabi terminlar ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan bog'liq holda tilimizda o'z o'rnini topdi.

Iqtisodiyot va biznes: "brend", "startup", "frilans", "investor", "marketing" kabi atamalar biznes muhitining global xarakterga ega bo'lishi bilan bog'liq holda keng qo'llanilmoqda.

Ijtimoiy va madaniy hayot: "blogger", "vlogger", "influencer", "streamer" kabi yangi atamalar ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida paydo bo'ldi.

Ekologiya va fan: "barqaror rivojlanish", "yashil energiya", "bioxilma-xillik" kabi tushunchalar ekologik muammolar va global isish masalalariga e'tibor oshgani sababli iste'molga kirdi.

Neologizmlarning jamiyat tomonidan qabul qilinishi turli omillarga bog'liq. Ayrim so'zlar tezda tilga singib ketadi, ba'zilari esa uzoq vaqt davomida moslashuv jarayonidan o'tadi. Masalan, "onlayn" va "oflayn" so'zlari hozirgi kunda barcha yosh toifalari tomonidan bemalol ishlatiladi, ammo "raqamli transformatsiya" kabi ilmiy terminologiya hanuz keng jamoatchilik uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin.

Tilshunoslar va mutaxassislar neologizmlarni milliy tilda muqobil atamalar bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Masalan:

1. ALGORITM, algorifm [lot. Algorithmi — X asrda yashagan buyuk o'zbek matematigi Al-Xorazmiyning nomidan] Ma'lum bir turga oid masalalarni echishda ishlatiladigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida (dastur). Al-goritm esa muayyan ketma-ket bajariladigan jarayonlar majmuasi bo'lib, nazariy va amaliy masalalarni echishda ishlatiladi. Gazetadan.
2. AVTOMAT [yun. automatos — o'zi harakatlanuvchi] 1 Muayyan jarayonlar bo'yicha belgilangan ishni ichki mexanizmi yordamida insonning bevosita ishtirokisiz o'zi bajaradigan apparat, mashina, asbob. Tokarlik avtomati. Suv sotadigan avtomat. 2 Tezotar avtomatik qurol. Bular [piyoda askarlar] hammasi ham miltiq va avtomatlarni tayyor tutgan holda ro'yirost bosti-rib kelmoqda edi. A. Qahhor, Oltin yulduz.
3. AVTOMAT-SPRAVOCHNIK Avtomat usulida ishlaydigan va biror soha bo'yicha qisqacha ma'lumot beradigan qurilma. Tosh-kenpg vokzalining kutish zallarida maxsus avtomat-spravochnik qurilmalar o'rnatilgan. "Fan va turmush"
4. ASSISTENTLIK Assistent ishi, lavozim». Assistentlik qilmoq.
5. ASSORTIMENT [fr. assortiment - terma, yig'ma, to'plam, saralangan] Tovarlar-ning

turli xillari, nomlari va navlariga ko'ra to'plami. Korxonani rekonstruktsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini kengaytirish bo'yicha dadil qadam tashlandi. Gazetadan.

6. AUDIT [lot. *auditis* — eshitish, tinglash] Auditorlik vakolati bo'lgan shaxslar (auditorlik firmalari) tomonidan xo'jalik sub'ektlari moliyaviy hisobotining eks-pertizasi va taxdili; taftish.

7. AUDITORIYA [lot. *auditorium* — ting-lash joyi] 1 Mashg'ulot, ma'ruza (doklad) va sh. k. o'tkaziladigan xona, bo'lma. Audi-toriyada olingan bilim bilan cheklanmaslik kerak, albatta. Gazetadan. 2 Mashg'ulot, ma'ruza va sh. k.ni ting-lovchilar, shuningdek, radiotinglovchilar va teletomoshabinlar.

8. AMORTIZATSIYA [lot. *amortisatio* -qoplash] 1 iqt. Mehnat vositalarining (ma-shina, jihoz, bino va sh.k.) eskirishiga qarab, ular qiymatini muayyan davr mobay-nida ishlab chiqarilayotgan mahsulot ustiga qo'ya borish, shu yo'l bilan eskirgan vosita-lar bahosini qoplash. 2 ml. Alohida shaxs yoki tashkilotning uzoq muddatli qarzni asta-sekin (hissalarga bo'lib to'lab) yoki qarzni sotib olib uzishi. 3 Yo'qotish, o'g'irlatish va h.k. oqibati-da qarz majburiyatini haqiqiy emas deb e'tirof etish. 4 Avtomashina, samolyot, inshoot va sh.k. ning urilish zarbini, silkinishni kamay-tirish.

9. ANONIM [yun. *anonymos* — nomsiz] 1 Xat yoki asarnint o'z nomini yashirgan mual-lifi. 2 Muallif nomi qayd etilmagan xat yoki asar. Anonim xat.

10. BLOK 1 [ingl. *block*, fr. *bloc* - yog'och, to'sin] 1 Gardishida zanjir, arqon, tasma o'rnatiladigan novi bo'lgan, g'ildirak shak-lidagi eng sodda yuk ko'tarish mexanizmi, moslamasi. Ko'zg'almas blok. Ko'zg'aluvchi blok. mm Mexanika fanida esa blok, vint, press, parma kabi sodda mexanizmlar atroflicha tahlil qilingan. «Fan va turmush».

11. BYUDJET [ingl. *budget* -hamyon, mablag'] 1 iqt. Muayyan vaqt (yil, yilchorak) uchun ishlab chiqilgan, me'yorlashtirilgan va qonuniy tarzda tasdikdangan daromadlar va xarajatlar yig'indisi. Byudjet yili. Byud-jet tizimi. Davlat byudjeti. Harbiy byudjet.

12. DUAL [lot. *dualis* — qo'shaloq, ikki yoqlama] Ikki, ikkilanma. Dual tuzilish o'zbek xalq ertaklarida hozirgacha saqlanib qolgan. «O'TA».

13. DEZINFEKSIYA [dez.. + infektsiya] Zararsizlantirish, xavfsiz holga kelti-rish: yuqumli kasalliklarni tarqatuvchi mikroblarni maxsus yo'llar bilan yo'q qi-lish, tugatish. Dezinfektsiya qilmoq. shsh Qan-dala tarqalgan xonalarni 0,2 protsentli trixlorofos emulsiyasi.. bilan dezinfek-tsiya qilinsa, yaxshi natija beradi. «Fan va turmush».

Bu kabi misollar juda ham ko'p uchraydi. Ayniqsa hozirgi kunda bu kabi so'zlar texnologiyalar asrida yanada ko'payib bormoqda.

DISKUSSIYA

Neologizm atamasiga olimlar turlicha ta'rif berishgan. R. Majidova, I. Yo'ldoshev, O'. Sharipov o'zlarining "Tilshunoslik nazariyasi asoslari" darsligida quyidagicha ta'rif beradi: "Neologizm – yangi narsa, yangi tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan, hali odatdagi lug'aviy birlikka aylanib ketmagan so'z yoki iboralardir."

H. Jamolxonovning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida quyidagicha ta'riflangan: "Leksik neologizmlar tilda yangi paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'ini yo'qotmagan so'zlar: internet, marketing, litsenziya va b. "

Yana shu kabi tilshunos olimlar o'z ilmiy izlanishlarida neologizmlarni shunday ta'riflaydi: " Yangi leksemalar – tilda endi paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'i sezilib turgan

soʻz: lizing, audit, market, test, internet, kabi. Ular fanda neologizm deb ham yuritiladi.

Barchasini umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, neologizmlar oʻzbektili leksikasining boyih manbaalaridan biri hisoblanadi. Tilimizga yangi kirib kelgan, ularda yangi boyoqdorlik sezilib turadi. Neologizmlar – bu yangi tushuncha va hodisalarni ifodalash uchun tilga kirib kelgan yoki yangidan yaratilgan soʻzlardir. Ular ilm-fan, texnologiya, madaniyat va kundalik hayotdagi oʻzgarishlarga mos ravishda shakllanadi. Baʼzi neologizmlar vaqt oʻtishi bilan unutiladi, boshqalari esa umumiy lugʻat tarkibiga kirib, tilning boyishiga xizmat qiladi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻzbek tili taraqqiyoti davomida neologizmlar muhim oʻrin tutmoqda. Ularning lugʻat tarkibiga kirib kelishi tilning zamonaviy davr talablariga moslashishiga xizmat qiladi. Ushbu maqolada neologizmlarning shakllanishi, qoʻllanilishi va oʻzlashtirish usullari oʻrganildi. Tadqiqot shuni koʻrsatadiki, ularning aksariyati xalqaro terminlardan iborat boʻlib, texnologiya, iqtisodiyot, ekologiya va ijtimoiy hayot sohalari bilan bogʻliq. Baʼzi yangi tushunchalar oʻzbek tilida oʻz ekvivalentiga ega boʻlsa, ayrimlari aslyatda saqlanib qolmoqda.

Neologizmlarni chuqur oʻrganish jarayonida hali yetarlicha tahlil qilinmagan jihatlar ham mavjud. Ulardan biri hududiy shevalarda yangi soʻzlarning qanday oʻzlashtirilishidir. Shahar va qishloq joylarida bir xil atamalar turlicha qabul qilinishi mumkin, bu esa tilshunoslik nuqtayi nazaridan qiziqarli mavzu hisoblanadi. Ikkinchi muhim jihat – yosh avlodning neologizmlarni qanday oʻzlashtirayotgani va ularning taʼlim jarayoniga taʼsiridir. Zamonaviy texnologiyalar va internet orqali bolalar va yoshlar yangi soʻzlarni tez oʻzlashtiradi, ammo ularning toʻgʻri ishlatilishi muhim masala boʻlib qolmoqda. Uchinchi, til meʼyorlari bilan bogʻliq muammolar ham eʼtibordan chetda qolmasligi lozim. Baʼzi neologizmlar oʻzbek tilining grammatik va fonetik qoidalariga mos kelmasligi sababli, ularni moslashtirish boʻyicha izlanishlar zarur.

Bu sohani yanada chuqurroq tahlil qilish uchun yangi oʻrganish usullari taklif etiladi. Bular orasida korpus lingvistikasi va sunʼiy intellekt asosidagi tahlil usullari muhim ahamiyatga ega. Korpus lingvistikasi orqali neologizmlarning matn korpuslarida qay darajada qoʻllanilayotgani, ularning tarqalish surʼati va semantik oʻzgarishlarini tahlil qilish mumkin. Sunʼiy intellekt texnologiyalari yordamida esa yangi paydo boʻlayotgan soʻzlarning tarqalish dinamikasi avtomatlashtirilgan holda kuzatilishi va ularning til tizimidagi oʻrnini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, sotsiolingvistik tadqiqotlar yordamida turli yosh toifalarida neologizmlarning qabul qilinishini oʻrganish mumkin. Neologizmlarning tilga toʻgʻri integratsiya qilinishini taʼminlash uchun bir nechta takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, rasmiy neologizmlar lugʻatini yaratish zarur. Bu lugʻatda yangi soʻzlarning tavsiya etilgan oʻzbekcha ekvivalentlari berilishi, ularning qoʻllanilishiga oid izohlar keltirilishi kerak. Ikkinchidan, yangi atamalarni taʼlim tizimiga joriy etish muhim. Oʻquv dasturlarida neologizmlarning toʻgʻri qoʻllanilishi boʻyicha maxsus darsliklar va oʻquv materiallarini ishlab chiqish lozim. Uchinchi, tilshunos olimlar tomonidan yangi soʻzlarning fonetik va grammatik jihatdan moslashuvini nazorat qilish, ularni normativlashtirish tizimini yoʻlga qoʻyish lozim. Toʻrtinchidan, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda neologizmlarning notoʻgʻri qoʻllanilishining oldini olish uchun maxsus qoʻllanmalar ishlab chiqilishi, blogerlar va jurnalistlar uchun tavsiyalar berilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, neologizmlar oʻzbek tilining global oʻzgarishlarga moslashuvi va boyishi jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ularni ilmiy asosda oʻrganish va tilga toʻgʻri joriy etish

O'zbek tilining rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalangan holda neologizmlarni chuqur o'rganish va ularni til tizimiga moslashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amalit tilshunoslik: ma'ruza matni / R. U. Majidova, G. I. Narmurodova.: Toshkent – 2024: - 180 - 181-sahifa
2. Tilshunoslik asoslari: I. Yo'ldoshev, S. Muhamedova, O. Sharipov, R. majidova. Toshkent – 2013. – 189-190-sahifa
3. Hozirgi o'zbek tili: Baxtiyor Mengliyev. "Excellent Publication" – Toshkent. 2020 – 182
4. Hozirgi o'zbek adabiy tili: H. jamolxonov. Toshkent – "Talqin". 2005. – 204-210-sahifalar
5. O'zbek tilining izohli lug'ati . birinchi jild. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. -680 b.
6. O'zbek tilida o'zlashma so'zlar va o'zlashma neologizmlar: Yusupova S. A. : " innovation science and research international scientific journal. Vol. 1. Issue 3. July 2023. -34-37

